
"Monomarkaz" bitiruvchilari tikuvchilik korxonalariga tashrif buyurishdi

Farg'ona shahridagi barcha mahallalardagi ishsiz xotin-qizlarning yirik tikuvchilik sexlari bilan tanishtirish tadbirlari yo'lga qo'yildi. Shuningdek, bugun "Monomarkaz"ning tikuvchilik yo'nalishini tamomlayotgan 50 nafarga yaqin xotin-qizlar ham "CONSTANT TRADING" qo'shma korxonasi, "Union group" va "BS Textile" MChJlardagi ishchilar uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishdilar.

Tadbir davomida viloyat bandlik bosh boshqarmasi boshlig'i, mutaxassislari, Farg'ona shahar aholi bandligiga ko'maklashish markazi rahbari tomonidan qonunchiligimizda belgilangan tartiblar hamda imtiyozlar to'g'risida ma'lumotlar berildi.

Markaz bitiruvchilari tomonidan berilgan savollarga mutaxassislar tomonidan javoblar hamda tushunchalar berildi. Korxonalarda yaratilgan shart-sharoitlar hamda oylik maoshlari ma'qul bo'lgan o'n nafardan ortiq xotin-qizlar shartnoma imzolash istagini bildirdilar.

2022-09-27 15:43:17